

## Globalashuv Davrida O'qituvchi-Pedagoglarni Kompyuter Savodxonligini Oshirish

*Halimjonov Ulug'bek Nosirjon o'gli<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada malakaliy pedagog-kardlar tayyorlashda va hozirgi pedagog-kadrlarni kompyuter savodxonligini hamda IT texnologiyalaridan mustaqil foydalanishida kamchiliklarni o'rganish va ularni taxlil qilish, ushbu kamchiliklarni bartaraf etish choralari, keng ko'lamli imkoniyatlar yaratilayotganligi, raqamli shaharchalar va IT parklar barpo etilayotganligi, bu imkoniyatlardan maqsadli foydalanishi hamda yoshlarga IT texnologiyalaridan foydalanga holda darslar berilishi, yurtboshimiz tomonidan bu borada IT texnologiyalar bilan ta'minlanib ulardan foydalanishda qulay imkoniyatlar yaratilganligi haqida fikrlar berildi.

**Kalit so'zlar:** Pedagog, kompyuter, axborot, IT sohalar, texnologiya. ta'lim, Professor, qaror, kadr, O'zbekiston, akademik, magistratura, doktorantura, dastur, uzluksiz ta'lim tizimi.

Globalashuv va rivojlanib borayotgan zamonamizda ya'ni, XXI asr texnologiyalar davrida axborot telekommunikatsiya, internet tarmoqlari, IT sohalar hamda dasturiy sohalar keng ko'lamda rivojlanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda yoshlarga hamda tajribali yoshi katta pedagog kadrlarga raqamli texnologiyalardan foydalanishni va axborot vositalari haqida bilimlarni berish, ularni zamon bilan hamo-hang tarzda rivojlantirish bo'yicha hududlarda bir qancha "Raqamli shaharcha", "IT Park" lar barpo etilmoqda.

Bugungi kunga kelib pedagoglar orasida kompyuter savodxonligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Chunki, ta'lim jarayonlarida o'qituvchi-murabbiylar tomonidan dars jarayonlari, ish yuritish hujjatlari, o'quvchilarning bilimini baholash jarayonlari ham tobora elektronlashib bormoqda. Darslar online yoki offline o'tiladigan bo'lsa ham, har bir pedagogning axborot va kompyuter vositalaridan foydalanishga extiyoji kundun-kunga ortib bormoqda. Lekin oliy ta'lim muassasalarida, texnikum hamda kasb-hunar maktablari, akademik litseylar va umumta'lim maktablarda ishlayotgan pedagog-kadrlarning deyarli ko'p qismi kompyuter savodxonligi borasida bilim ko'nikmalari yetarli bo'lmay qoniqarli deb baholanmoqda. Agar oliy ta'lim muassasalarida, texnikum hamda kasb-hunar maktablari, akademik litseylar va umumta'lim maktablarda ishlayotgan pedagog-kadrlar o'zlari zamonaviy IT texnologiyalaridan foydalanishda yetarli bilimga ega emas ekan, u holda tahsil oluvchi talaba yoshlarga qanday qilib sifatli ta'lim berishi mumkin. Shu sababli malakali pedagog o'qituvchi va kadrlarni tayyorlashda ularga ta'lim beruvchi pedagog-o'qituvchilarni kompyuter savodxonligini oshirish asosiy vazifadir.

Pedagog-o'qituvchilarni va yosh tahsil oluvchi talaba-yoshlarni malakali yetuk kadr qilib tayyorlashda va ularni kompyuter savodxonligini oshirishda zamon bilan hamnafas bo'lishda keng shart-sharoitlar yartatib berilmoqda. Ularga ta'lim muassasalarda o'rgangan bilimlarini amaliy qo'llashda laboratoriya xonalari, kerakli texnologiyalar va kompyuter jihozlari bilan ham ta'minlanmoqda.

<sup>1</sup> Andijon davlat Pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti matematika va informatika (kechki) ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi



2020-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Oliy Majlisga murojaatnoma yo‘lladi. Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida Prezidentimiz IT sohasini va IT-parklarni rivojlantirish haqida bir qator yangiliklar va o‘zgarishlar qilinishi haqida alohida ta’kidlab o‘tdilar: “Barqaror rivojlanishga erishish uchun biz raqamli bilimlarni va axborot texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirishimiz kerak, bu esa bizga har tomonlama rivojlanishga erishish uchun eng qisqa yo‘ldan borishimizga imkon beradi. Bugungi dunyoda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. 2019-yilda “Xalqaro axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi” bo‘yicha mamlakatimiz 8 pog‘onaga ko‘tarilganiga qaramay, biz hali ham bu sohada juda orqada qolmoqdamiz. Aksariyat vazirliklarimiz va idoralarimizda, ko‘pchilik korxonalarimizda hali ham raqamli texnologiyalar to‘laqonli joriy etilmagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, katta mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini barchamiz juda yaxshi bilamiz. Ammo, qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz bu ishni bugun boshlashimiz kerak, aks holda ertaga juda kech bo‘ladi. Shu sababli raqamli iqtisodiyotga jadal o‘tish kelgusi besh yil uchun eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi. Ma’lumki, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulotlar va xizmatlar sifatini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi, balki meni juda qattiq tashvishga soladigan eng jiddiy muammo – korrupsiyaga qarshi kurashda ham samarali vosita hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi davlat va jamiyat boshqaruvining samaradorligini oshirishga, ijtimoiy sohani rivojlantirishga, bir so‘z bilan aytganda, odamlar hayotini tubdan yaxshilashga yordam beradi”<sup>2</sup>

Bundan tashqari, IT sohasini rivojlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori<sup>3</sup> ham e‘lon qilingan unga ko‘ra:

Pedagog kadrlarning kasb malakasi va mahoratini sifat jihatidan muntazam oshirib borish, pedagog va ilmiy xodimlarning stajirovkadan o‘tishini yo‘lga qo‘yish, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini PhD dasturi va xorijiy magistratura dasturlari asosida o‘qitish;

Oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta’lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integratsiyasini kuchaytirish, professor-o‘qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishga jalb etish;

Professor-o‘qituvchilarning kasb mahoratini, pedagog xodimlarning malakasini oshirish, shuningdek, ularning xorijiy hamkor oliy o‘quv yurtlarida malaka oshirishi, magistratura, doktoranturada ta’lim olishi hamda respublikamizning tayanch oliy o‘quv yurtlari qoshida qayta tayyorgarlikdan o‘tishi va malaka oshirishi.

Mazkur dasturda, asosan, mamlakatimizning har bir oliy ta’lim muassasasi bilan AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Rossiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va shu kabi boshqa davlatlarning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarining o‘rnatilgani o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda har yili 350 nafardan ortiq xorijlik yuqori malakali pedagog va olimlarning mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlariga o‘quv jarayoniga jalb etilishi ko‘zda tutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, mamlakatimizning izchil rivojlanib borayotgan iqtisodiyotini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash, barcha hududlar va tarmoqlarni strategik jihatdan kompleks rivojlantirish masalalarini hal qilish borasida oliy ta’lim tizimi ishtirokini kengaytirish yo‘lidagi yana bir muhim amaliy qadamdir.

<sup>2</sup> <https://it-park.uz/index.php/uz/itpark/news/prezident-murojaati-it-sohasini-va-it-parklarni-rivojlantirish-haqida>.

<sup>3</sup> (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.06.2020-y., 06/20/5370/0975-son, 09.07.2020-y., 06/20/6021/1047-son, 28.09.2020-y., 06/20/6075/1330-son; 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son).



Xususan: Respublikamizda yosh malakali yetuk kadrlarni kompyuter savodxonligini oshirish bilan bir qatorda ularni tayyorlashda ularga ta'lim-tarbiya beruvchi pedagog-o'qituvchilarni ham kompyuter savodxonligi va bilim ko'nikmalarini oshirishda keng miqiyosli imkoniyatlar ajtarilmoqda.

Pedagog-o'qituvchilarni kompyuter savodxonligini oshirish chora-tadbirlarini o'zi ishlayotgan muassasalarida haftada bir kun malakali hodim tomonidan ochiq dars sifatida yoki konferensiya ko'rinishida amaliy darslar o'tkazilishi va o'qituvchilarga kompyuter savodxonligini oshirishda shart sharoitlar yaratib berilishi lozim.

Pedagog-o'qituvchilar o'zi o'tadigon darslarni iloji boricha kompyuter qurilmalari va interaktiv monitorlardan foydalangan holda o'tishi kerak. Shu bilan pedagog-o'qituvchilar kompyuter savodxonligini haftada bir marta bo'lib o'tgan darslardan olgan bilimlarini amaliyot tarzda qo'llashi oqibatida yanada mustahkamlab boradi.

Bundan tashqari, pedagog-o'qituvchilarga o'tilgan va berilgan bilim-ko'nikmalarni baholash borasida ulardan ham nazariy ham amaliy tarzda doimiy har 4 oyda bir marotaba imtihon tarzda ular qanchalik bilim-ko'nikmalarga ega bo'lganligini bilib olishi va o'z ustida yanada ko'proq ishlashi kerakligini anglab oladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. <https://it-park.uz/index.php/uz/itpark/news/prezident-murojaati-it-sohasini-va-it-parklarni-rivojlantirish-haqida>.
2. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.06.2020-y., 06/20/5370/0975-son, 09.07.2020-y., 06/20/6021/1047-son, 28.09.2020-y., 06/20/6075/1330-son; 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son).
3. "Informatika" fanidan o'quv qo'llanma. 1-qism Ayupov R. H.

